

CHET TILLARNI O'QITISHGA DOIR TARIXIY-PEDAGOGIK AN'ANALAR TAHLILI

*M. Maxmudova*¹

Annotatsiya:

Ushbu maqola tilning kelib chiqishi, til xilma-xilligi va globallashuvning tilni saqlashga ta'sirini o'rganadi. Unda madaniy aloqalarning muhimligi va tillarni saqlashda ta'limning roli kabi masalalarga ham alohida urg'u qaratilgan.

Kalit so'zlar: tilning kelib chiqishi, til xilma-xilligi, tilni saqlash, madaniy meros, globallashuv, til ta'limi, yo'qolib borayotgan tillar. davlat tili maqomi

doi: <https://doi.org/10.2024/wkn10e78>

Kirish. Chet tillarni o'qitishda tarixiy-pedagogik an'analarni o'rganish tillarning kelib chiqishi, xilma-xilligi va saqlanishi haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Ushbu maqola til birinchi marta qachon va qanday paydo bo'lganligi haqidagi qiziqarli savolni ko'rib chiqishi, turli ilmiy nuqtai nazarlarni o'rganishi bilan ahamiyatlidir. Shuningdek, biz bugungi kunda amalda qo'llanilayotgan tillarning keng doirasini, ularning o'zaro bog'liqligini va tobora globallashib borayotgan dunyoda duch keladigan muammolarni ko'rib chiqamiz. Til barqarorligining murakkabliklarini ko'rib chiqar ekanmiz, globallashuv va migratsiyaning til o'zgarishiga ta'siri va til xilma-xilligining yo'qolishi mumkinligini ham turli asosli misollar vositasida yoritib beramiz. Pirovardida, bu tahlil madaniy merosni asrab-avaylash va ko'p tillilikni tarbiyalashda til ta'limining dolzarb ahamiyatini ta'kidlaydi.

Asosiy qism. Bashariyat tarixida "Til qachon va qay tarzda vujudga kelgan?" degan savol ko'pchilik olimlarni qiziqtiradi va o'ta dolzarb sanaladi. Biroq ilm hali hanuz mazkur savolga aniq javob topgani yo'q. Bazi olimlar eng qadimgi odamlardan "Homo erectus" bundan 2,5 million yil avval o'z tilida o'zaro so'zlashgan deb ta'kidlaydilar. Boshqalar esa, faqatgina "Homo erectus" davrida, ya'ni bundan 1,8million yil avval til kelib chiqqan deb hisoblaydilar. Biroq bugungi tushunchadagi til voqeligi bundan 100 yil avval yuqori paleolit davrida yuzaga kelgan degan fikr to'g'riroq sanaladi.

Bugungi kunda til borasidagi ilmiy qarashlar ichida pratil, ya'ni eng qadimiy bo'lgan Ona til haqidagi fikr keng tarqalmoqda. Unga ko'ra barcha tillarning bosh asosi bir bo'lgan, mana shu asosga tayanib dunyo tillari vujudga kelgan va tarqala boshlagan. Shuning uchun zamonaviy tillar ichida o'zaro bir-biriga o'xshash tillar mavjud. Ba'zi so'zlar o'zagidagi bir xillik mavjudligi ham mana shu gipotezani tasdiqlab beradi. Biroq boshqa fikr ham mavjud, ya'ni tillar kelib chiqishida avvali boshi bir necha til turlari mavjud bo'lgan. Shuning uchun bugungi kunda insoniyat yuzlab tillarga ega. Bugungi kunda dunyo miqyosida yetti mingdan ortiq til mavjudligi tan olingan. Ularning ichida kundan- kun rivojlanib, o'sib borayotgan va keng tarqalayotgan tillar qatorida, rivoji sust, unda gapiradigan aholi soni kamayib borayotgan va yo'qolib borayotgan tillar ham mavjud. Shuning uchun "tirik til" va "o'lik til"

¹ *Muyassar Maxmudova, SamDCHTI "Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogikasi" kafedrasi professori, Pedagogika fanlari doktori*

tushunchalari amal qiladi. Zamonaviy tillar tarkibida 100 dan ortiq kichik tillar asta sekin zamonaviy iste'moldan chiqib, yo'qolib borayotgan tillar qatoriga qo'shiladi.

Til har vaqt inson bilan birga keladi. Birobarin, til mavjud bo'lishi uchun unda so'zlashayotgan odamlar va xalqlar bo'lishi lozim. Agar ma'lum bir tilda so'zlashayotgan so'nggi inson bo'lsa, uning vafoti bilan, mana shu til voqeligi ham yo'qoladi. Shunga ko'ra, xalqlar mavjudligi, ularning madaniyati, tarixi, ta'limi, turli soxalarning mavjudligi bilan bevosita aloqadorlikda rivojlanadi. Shu bilan birga, til mavjud bo'lishi uchun uning alifbosi, ya'ni tilni mustahkamlab beruvchi boshqa biror vosita, ya'ni yozuv mavjud bo'lishi zarur. Alifbosi mavjud bo'lgan tillar uzoq yashay oladigan tillar qatoriga qo'shiladi.

Tillar dunyo xalqlari ichida mutanosib tarqalmagan. Masalan, dunyo xalqlarining 80% yetti ming tillardan faqat 80 tasi orqali muloqot olib boradi. Biror bir tilda qanchalik ko'p odam so'zlashsa, mana shu tilning umrboqiyiligi ortib boradi.

Tilning tarqalishi va umrboqiyiligiga bugungi tahdidlardan globalizatsiya va mehnat migratsiyasini aytib o'tish joiz. O'z yurti, kindik qoni to'kilgan yurti tashlab, o'zga yurtlarga ketgan odamlar orasida ikkinchi avloddan boshlab o'z ona tilini unutish, yoki uni umuman bilmaslik holatlari kuchayib boradi.

Biroq til hodisasi faqat muloqot vositasi emas, balki shu bilan birga, madaniyat, qadriyatlar tizimi, axloq tarbiya, mental xususiyat bilan o'zaro chatishib ketgan hodisa hisoblanadi. Shu bois, o'z tilini unutgan inson tabiiy ravishda o'z milliy madaniyati, axloqi va mentalligidan uzoqlashib boradi. Shunga ko'ra, olimlarning tillarning kelajakda amal qilishi bilan bog'liq fikrlariga ko'ra, aynan bugungi kundagi amalda mavjud bo'lgan tillardan teng yarmi XXI asrning so'ngida amaliyotdan chiqib ketadi va yo'qotiladi. Chunki mana shu tilda so'zlashuvchi insonlar boshqa til vositasida muloqot qilishga o'tadi va o'z tilining yo'qolib borishi uchun xizmat qiladi. Bunda ikki til munosabatlarida kuchli tilning kuchsiz til imkoniyatlarini uz domiga tortib ketishi holati kuzatiladi. Kuchli til boshqa tilni muloqot doirasidan siqib chiqarib yuboradi. Agar milliy tilda yangi tug'ilib, o'sib borayotgan bolalarning 70% so'zlashmasa, uni o'rganmasa, mazkur til asta - sekin o'z imkoniyatlarini yo'qotib, yo'qotilayotgan tillar qatoridan o'rin oladi. Masalan, Yevropa qit'asida 50 ga yaqin kichik tillar yo'qolib borayotgan tillar sirasiga kiradi. Shu nuqtayi nazardan, Afrika, Avstraliya, Xindi - xitoy yarim oroli, Amerika qit'asidagi kichik qabilalar tillari mana shunday yo'qolib borishga mavhum tillar sifatida baholanadi. Binobarin, til umrboqiyiligiga o'z ta'sirini o'tkazuvchi bosh omil mana shu tilda o'sib borayotgan yosh avlod, ya'ni bolalarning 70% so'zlashishi sanaladi.

Til hodisasida o'lik til bo'la turib, juda katta ahamiyatga ega bo'lib saqlanib qolgan tillar ham mavjud. Bunday tillar sirasiga Vatikanning muloqot tili sanalgan qadimgi lotin tilini misol qilib ko'rsatish mumkin. Qadimgi lotin tili o'lik til hisoblanadi, biroq diniy til sifatida to shu bugun ham keng qo'llaniladi. Tillar ichida ingliz, xitoy, rus, arab tillar juda keng tarqalgan, juda kup axoli so'zlashuvchi tillardandir. Shunga kura, bugungi kunda BMT tarkibidagi o'zaro millatlararo muloqot tillari sifatida ingliz, arab, ispan, xitoy, rus va fransuz tillari qabul qilingan.

Dunyo xalqlari turli va rang - barang tillarda gapiradi. Dunyo bo'yicha tillar soni qancha degan savolga aniq javob yo'q bo'lib, bu holat turli sheva va qabilalar tillarining ham mavjudligi bilan bog'liq. Aslida esa, dunyo bo'yicha yetti mingdan ortiq til hamda shevalar bor degan ma'lumotlar mavjud. Ulardan faqatgina besh yuzdan ortiq tillar o'rganilgan xolos. Dunyo tillaridan faqat qirqtasi grammatik va lingvistik jixatdan o'rganilgan tillar qatoriga qo'shiladi. Shu bilan birga, dunyo tillarining har uchtasidan bittasi yo'qolib borish xabari mavjud tillardan sanaladi. Globalizatsiya shart - sharoitlari xam tillar mavqei va holatiga o'z salbiy ta'sirini o'tkazib keladi. Bizning zaminimizda tillarga bo'lgan qiziqish va ularni o'zlashtirish an'anasini qadim-qadimdan mavjud bo'lgan. Bizning insoniy an'alarimiz

ichida zullisonaylik, ya'ni bilingvizm hodisa qadimgi davrlardan beri mavjud bo'lib, hozirda ham uchrab turadigan lingvistik an'ana sanaladi. Masalan, agar Toshkent shahrida ko'proq o'zbek va rus tillarini mukammal biladigan va ularni teng ravishda o'z hayotida qo'llaydigan insonlar soni talaygina bo'lsa, Samarqand, Buxoro shaharlari hamda Surxon va Qashqadary vohasidagi ba'zi manzillarda o'zbek va tojik tillarini teng ravishda biladigan odamlar soni anchaginani tashkil qiladi. Ularning barchasi bilingvistlar qatoridan o'rin oladi. Aynan arablar tomonidan Movarounnahrning bosib olinishi va islom dinining mana shu hududda keng tarqalishi oqibatida ikkitillilik va uchitillilik hodisasi vujudga keladi. Mana shu lingvistik vaziyat barisida dunyo sivilizatsiyasiga juda katta hissa qo'shgan muhaddis va fiqhshunos olimlarimizdan Imom Al-Buxoriy, Hakim At-Termiziy, Az -Zamaxshariy, Imom Al - Motrudiy, Burxoniddin Marg'inoniy; dunyoga mashhur qomusiy olimlardan Abu Rayxon Beruniy, Axmad Al- Farg'oniy, Muso Al – Xorazmiy, Ibn Sino, Abu Nasr Farobiy, Ulug'bek, Ali Qushchi, mutasavvufardan Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Yusuf Hamadoniy, Abduxoliq G'ijduvoni, xo'ja Bahouddin Naqshbandiy, So'fi Olloyor va boshqalarning ijod namunalari keltirish mumkin.

Dunyo tillari, ular faoliyat olib borayotgan dunyo o'zgarishlariga o'z moyilligini ko'rsatmoqda. Mana shunday ijtimoiy o'zgarishlar va globalizatsiya milliy tillarning o'zi ham o'zgarib borishiga imkon yaratmoqda. E'tirof etish kerakki, dunyodagi 200 ta til bugungi davlat tili maqomiga erishgan bulib, shular orasida o'zbek tili xam bor. O'zbek tiliga davlat tili maqomi mustaqillik ostonasida 1989 - yil 21- oktyabrda berildi.

O'zbekistonda amal qilayotgan til to'g'risidagi qonunchilikning o'ziga xos ahamiyatli tomoni shundaki, unda davlat tili bilan birga yurtimizdagi barcha millat va elatlarning tillarini rivojlantirish, davlat yo'li bilan himoya qilish, tili, dini va millatidan qat'iy nazar, har bir fuqaroning o'z ona tilida ta'lim, axborot va boshqa kerakli ma'lumot olish kabi huquqlarini kafolatlash masalalari aniq belgilab qo'yildi.

Xulosa. Shunday qilib, birinchidan, O'zbekistonda aynan mustaqillik yillarida chet tillarni o'qitish tizimi faoliyati, metodlari, tamoyillari qayta ko'rib chiqildi, hamda davlat ahamiyatiga molik vazifalar qatoridan o'rin oldi. Ikkinchidan, chet tillariga o'qitish an'anasi va qadriyatlarini bizning xalqimizning milliy madaniyatiga xos xususiyatlaridan bo'lib kelganligi bois, bugungi avlodlar tafakkurida ham zamonaviy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishi juda kuchlidir. Til ta'limida jamiyat a'zolari, ota-onalar, pedagoglar hamda jamiyatning boshqa turli vakillaridan talab qilinadigan asosiy vazifalardan biri kelajak avlodda o'z ona tiliga nisabatan chuqur muhabbat uyg'otish, uni mukammal o'rganib keyingi avlodlarga ham butun go'zalligi bilan meros qilib qoldirish borasida mehnat qilish, shuning bilan birgalikda o'zga tillarni ham hurmat qilishga tarbiyalashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Crystal, D. (2000). *Language Death*. Cambridge: Cambridge University Press.
- [2]. Nettle, D., & Romaine, S. (2000). *Vanishing Voices: The Extinction of the World's Languages*. Oxford: Oxford University Press.
- [3]. Edwards, J. (2010). *Language Diversity in the Classroom*. Bristol, UK: Multilingual Matters.